

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

MAMATQULOV BEXZOD MAXAMMADISMON O‘G‘LI

TEATR QO‘G‘IRCHOQLARINI YASASH TEXNOLOGIYASINING
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 792.97:746:688.721.2(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Mamatqulov Bexzod Maxammadismon o‘g‘li

Teatr qo‘g‘irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy
asoslari 3

Маматкулов Бехзод Махаммадисмон угли

Теоретические и практические основы технологии изготовления
театральных кукол..... 23

Mamatkulov Bekhzod Makhammadismon ugli

Theoretical and practical basics of theater puppet making technology 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

MAMATQULOV BEXZOD MAXAMMADISMON O‘G‘LI

TEATR QO‘G‘IRCHOQLARINI YASASH TEXNOLOGIYASINING
NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi 'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2019.2.PhD/San76 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.dimi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Sarvinoz Muxsinovna
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ahmetjanova Muqaddas Vahobovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Qobilova Feruza Nasrullayevna
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 28-avgust soat 10⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A" uy. Tel: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (30-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A" uy. Tel: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 11-avgustdagi 14-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.A.Umarov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi globallashuv jahon madaniy hayotida hamda qo'g'irchoq yasash texnologiyasida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Jahon teatr amaliyotida plastik vositalaridan 3D printer texnologiyasi asosida tayyorlangan qo'g'irchoqlardan foydalanish tobora ommalashib, qo'g'irchoqlarni yasash bilan bog'liq spetsifik xususiyatlar, qahramon qiyofasi va xarakterini yaratishdagi ijodiy izlanishlar yangi-yangi ko'rinishlarda o'z ifodasini topmoqda. Spektakl qahramonlari qiyofasini gavdalantirishda, amaliyotga joriy etishda an'ana va qadriyatlarni hamda zamonaviy jarayonlarni nazarda tutish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon san'atshunoslik ilmida qo'g'irchoq yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari qo'g'irchoq teatri rivoji kesimida tadqiq etilmoqda. Teatr san'atining alohida turi hisoblangan qo'g'irchoq teatrida dramaturg matni, rejissyor g'oyasi, aktyor mehnati, sahnalashtiruvchi rassom chizmasi va qo'g'irchoq ustasining yasagan qo'g'irchoqlar ishlanmasi tufayli badiiy yaxlit sahnaviy talqin yuzaga kelib, qo'g'irchoq yasashdagi texnologik yangiliklarning sahna badiiy yechimiga bo'ysundirilishi va qahramon xarakteriga mos qiyofa yaratishdagi izlanishlarni olib borish jadallashmoqda. Ijtimoiy voqelik ta'sirida zamonaviy qo'g'irchoq san'atida teatr qo'g'irchoqlarini yasashning asosiy yo'nalishlari, bu sohada jamlangan tajriba va an'analarni o'rganish, yangi davrda yuzaga kelgan tendensiyalarni aniqlash, badiiy qiyofa yaratish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston qo'g'irchoq teatri san'atining taraqqiyot jarayonlarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda yaxlit va tizimli tadqiq etish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, mustaqillik yillarida zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarini, multimedia va kompyuter dasturlarini o'zlashtirgan holda qo'g'irchoq spektakllari sahnalashtirilib, o'tkazilayotgan ko'rik-festivallar milliy va jahon tajribasini o'rganish hamda amaliyotda qo'llash imkoni natijasida, qo'g'irchoqlarning badiiy qiyofasi, mavzu va janrlar ko'lamini, qahramon, syujet hamda rejissyor talqini ham o'zgarib bormoqda. "Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida oliyjanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda"¹. Bu esa teatr qo'g'irchoqlarining milliy xususiyatlarini saqlagan holda badiiy qiyofasini yaratish, ijodiy jarayonlarni tadqiq etish, xalqaro tajribani o'zlashtirishning o'ziga xos uslublarini o'rganishda ustuvorlik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son "O'zbekiston Respublikasi

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Xalqaro teatr kuni" munosabati bilan mamlakatimiz teatr san'ati xodimlariga tabrigidan. / – Toshkent: "Xalq so'zi", 2021-yil, 26-fevral, 61-son.

Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yilning 22-noyabr PQ-399-son "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-yanvardagi 9-son "2018-2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda qo'g'irchoq teatri san'atining spetsifik xususiyatlari, milliy madaniyat ko'lamida tutgan o'rni va teatr qo'g'irchoqlarining funksional jihatlariga doir masalalar qator ilmiy tadqiqotlarda atroflicha o'rganilgan. Jumladan, V.L.Berman, S.Gnutikova, A.A.Ivanova, Y.Kovicheva, E.Lopatkina. Y.Y.Romanovskiy² kabilarning dissertatsiyalarida teatr qo'g'irchoqlarining tarixi, milliy xususiyatlari va tasviriy yechimlari tahlil qilingan.

MDH mamlakatlari doirasida qo'g'irchoq teatri taraqqiyoti masalasi ham o'ziga xos yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, A.Yeshmuratova, Yorik, Sh.Manyen, S.Obrazsov, N.Smirnova, Ye.Speranskiy, N.Simonovich-Yefimova, I.Solomonik, Ye.Demmeni, A.Fedotov, A.Nekrilova, B.Goldovski, N.Nurdjanov, A.Sirimbetov³ kabilarning ishlarida Yevropa tipidagi qo'g'irchoq teatri

² Берман В.Л. Театральная реальность и ее трансформация в эпоху постмодерна (на материале театра кукол): Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Москва, 2009. – 128 с.; Гнутикова С.С. Театральная кукла в России XX века как артефакт музейной культуры: Автореф. дисс. канд. иск. – Москва, 2009. – 210 с.; Иванова А.А. Театр кукол: содержательность традиционных технологических систем: Автореф. дисс. канд. иск. – Санкт-Петербург, 1996. – 196 с.; Ковычева Е.И. Театральная кукла-функция, форма, образ (на примере кукол театра Н.Я.Ефимова и И.С.Ефимовых): Автореф. дисс. канд. иск. – Москва, 1999. – 156 с.; Лопаткина Е.Б. Авторская кукла конца XX начала XXI века в России (история, типология, изобразительная специфика): Автореф. дисс. канд. иск. – Москва, 2013. – 196 с.; Романовский Е.Я. Искусство театра кукол в контексте национальной культуры: Автореф. дисс. канд. иск. – Москва, 2008. – 127 с.

³ Ешмуратова А.К. Режиссура казахского театра кукол: генезис, эволюция, модернизация: Дисс. док. фил. (PhD). – Алматы, 2019. – 163 с.; Йорик (П.Фериньи) История марионетки. – С.Петербург: Спб, 1913. – 163 с.; Маньен Ш. История марионетки в Европе (лит.пер. с франц. Б.Голдовского). – Москва: Искусство, 2017. – 161 с.; Образцов С. Моя профессия. – Москва: Искусство, 1981. – 221 с.; Смирнова Н. Театр Сергея Образцова. – Москва: Наука, 1971. – 181 с.; Смирнова Н. 10 очерков о театре "Цендэрикэ". – Москва: Искусство, 1979. – 185 с.; Смирнова Н. Искусство играющих кукол. – Москва: Искусство, 1983. – 162 с.; Сперанский Е. Актёр театра кукол. – Москва: ВТО, 1965. – 160 с.; Сперанский Е. Повесть о странном жанре. – Москва: ВТО, 1971. – 240 с.; Симонович-Ефимова Н. Записки петрушечника и статьи о театре кукол. – Ленинград, 1980. – 426 с.; Соломоник И.Н. Традиционный театр кукол Востока. – Москва: Наука, 1983. – 212 с.; Соломоник И.Н. Традиционный театр кукол Востока. Кн.2. – Москва: Наука, 1992. – 312 с.; Деммени Е. Призвание – кукольник. – Москва: Искусство, 1986. – 199 с.; Федотов А. Техника театра кукол. – Москва: Искусство, 1953. – 210 с.; Некрылова А. Русские народные городские праздники, увеселения и зрелища (конец XVIII начало XX века). – Санкт-Петербург: Азбука классика. 2004. – 213 с.; Голдовский Б. Куклы: энциклопедия. – Москва: Время, 2004. – 496 с.; Нурджанов Н. Традиционный театр таджиков в двух томах. Т.2. – Душанбе, 2002. – 329 с.; Сырымбетов А. Киргиз куурчак театры. – Фрунзе: Адабият, 1989. – 110 с.

rejissurasining shakllanish jarayoni va zamonaviy rivojlanish bosqichlari, qo'g'irchoq teatri spetsifikasi va texnologiyasi tadqiq etilgan.

O'zbekiston teatrshunosligida qo'g'irchoq teatri texnologiyasi va uning tarixiy rivojlanish bosqichlari alohida, tizimli tadqiqot sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bilan birga, o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri tarixi va zamonaviy ijodiy jarayonlar, qo'g'irchoq yasashdagi texnologik xususiyatlar M.Gavrilov, L.A.Perepelitsina, M.X.Qodirov, I.A.Muxtarov, S.M.Qodirova, H.I.Ikromov, T.I.Yuldashev, M.S.Muxtorova, G.Uvarova, T.Smolyakova, F.Kobilova, M.Ubaydullayeva⁴ asarlarida o'z aksini topgan. Bundan tashqari, rejissyorlar V.Iogelsen, I.Yoqubov, Sh.Yusupov, M.Ashurova, F.Xo'jayev kabilarning esdaliklari va maqolalari tadqiqot uchun muhim manba bo'lib xizmat etadi. Dissertatsiyani yozish jarayonida soha mutaxassislarining teatr faoliyatiga bag'ishlangan maqolalaridan foydalanildi. Aksariyat maqolalar spektakllarga taqriz, gastrol safarlari, yubiley va alohida ijodkorlar faoliyatiga bag'ishlab yozilgan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A1-081-raqamli "XX-XXI asr boshlaridagi o'zbek xalqi san'atidagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy tahlil)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: teatrda qo'g'irchoq yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, ijodiy jarayonga ta'sir tamoyillarini ijtimoiy, madaniy-tarixiy omillar kesimida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini ochib berish;

qo'g'irchoq turlarini qayta tiklash, bugungi kunga qadar bu sohada erishilgan asosiy yutuq va tajribalarni umumlashtirish, zamonaviy teatr qo'g'irchoqlarini yasashning texnologik imkoniyatlarini tasniflash;

tadqiqot natijalari asosida teatr qo'g'irchoqlarini yasashda shakllangan ijobiy an'analarni o'zlashtirish, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida sohani rivojlantirish, teatr qo'g'irchoq'ining texnik va badiiy imkoniyatlarini ochib berish;

qo'g'irchoq teatrida texnik jihatdan davr talablariga javob beradigan, kompyuter o'yinlari, raqamli texnologiyalar (IT dasturlar) qahramonlari bilan raqobatlasha

⁴ Гаврилов М. Кукольный театр в Узбекистане. – Ташкент: Средазкнига. 1928. – 210 с.; Перепелицина Л.А. Узбекский народный кукольный театр. – Ташкент: изд.художественной лит.-ры. 1959. – 97 с.; Кадыров М.Х. Узбекский традиционный театр кукол. – Ташкент: Издательство литература и искусство им. Гуляма Г., 1979. – 146 с.; Qodirov M.X. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 225 b.; Кадыров М.Х. Труды по истории зрелищных искусств в 3-х томах. Т.2. – Ташкент: San'at, 2007. – 162 с.; Qodirov M.X. Temuriylar davri tomosha san'atlari. – Toshkent: San'at, 2007. – 210 b.; Qodirov M.X. O'zbek an'anaviy teatri. – Toshkent: O'zbekiston milliy kutubxonasi. 2010. – 468 b.; Qodirov M.X., Qodirova S.M. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – 208 b.; Qodirov M.X. Xalq qo'g'irchoq teatri (qayta to'ldirilgan nashr). – Toshkent: San'at, 2022. – 204 b.; Yuldashev T., Ikromov H., Muxtarov I., Muxtarova M. Teatr va yosh avlod. – Toshkent, 2012. – 163 b.; Ikromov H. Davr va teatr. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 240 b.; Уварова Г. Узбекский драматический театр. – Москва: Искусство, 1959. – 182 с.; Смолякова. Т. Технология изготовления театральной куклы. – Ташкент, 2007. – 109 с.; Kobilova F. Mustaqillik davrida O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlari ssenografiyasi. San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2023. – 135 b.; Ubaydullayeva M. O'zbek qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari va sahna talqini muammolari. San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2023. – 156 b.

oladigan milliy qo'g'irchoqlarni yaratish bo'yicha ilmiy, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri hamda Andijon va Farg'ona viloyat qo'g'irchoq teatrlarining qo'g'irchoq yasashda tashkiliy-ijodiy, an'ana va zamonaviy izlanishlari tanlangan.

Tadqiqot predmetini teatrlarning ijodiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan, zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan qo'g'irchoqlar asosida sahnalashtirilgan, g'oyaviy va badiiy jihatdan yuksak spektakllar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda zamonaviy san'atshunoslik ilmida o'z isbotini topgan tarixiy-xronologik, faktologik, tasnifiy, tahliliy, solishtirma-qiyosiy, o'rganilayotgan muammoga kompleks yondashuv kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek teatr qo'g'irchoqlarining jahon qo'g'irchoq turlari bilan tasviriy ifodalash vositalari, sahna bobligi jihatidan o'xshash va uslubiy yondashuvlari, tomoshabin bilan muloqotga kirish kabi mushtarak jihatlari, shuningdek, milliy sahna madaniyatiga xos bo'lgan badiiy-estetik xususiyatlari aniqlangan;

Evropa tipida yozma dramaturgiya asosida ish ko'ruvchi yangi shakldagi teatr qo'g'irchoqlarini yasashda obraz tub mohiyatini aniq ifodalash va badiiy shaklni kuchaytirish zarurati sababli pape-mashe texnologiyasidan keng foydalanilganligi, bugungi kunda ham bu an'ana aksariyat spektakllarda qo'llanilib kelinayotganligi isbotlangan;

teatr qo'g'irchoqlarining sahnada badiiy obraz yaratishdagi ifodalash imkoniyatlari, harakatlanish usullari va boshqaruv mexanizmlarini aks ettiruvchi strukturaviy echimlari, funksional qurilishi va konstruktiv elementlari kabi texnik xarakteristikasi, rassom va qo'g'irchoq ustasi ishi, qo'g'irchoqlarning badiiy ifodaviyligi qahramon xarakterini ochishga xizmat qilganligi dalillangan;

tarixiy, afsonaviy, zamonaviy mavzudagi asarlarni sahnalashtirishda qo'g'irchoq yasash texnologiyalaridan foydalanish sahna ko'rinishlarining ifodaviy echimlarini boyitish va tomoshabin taassurotini kuchaytirishga ta'sir qilgani sababli spektakllarning badiiylik, ta'sirchanlik xususiyatini oshishiga xizmat qilganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

respublikadagi qo'g'irchoq teatrlarida faoliyat olib borayotgan yosh ijodkorlar: rassom, rejissyor, aktyorlar kelgusida o'z ijodiy yo'nalishlarini topishida, teatr qo'g'irchoqlarining yasashi, sahnaviy va texnik imkoniyatlarini kengaytirishda, jahon teatr san'atida kechayotgan zamonaviy jarayonlarni kuzatgan holda ijod etishida muhim manba yaratilgan;

oliy va professional ta'lim muassasalari uchun o'zbek qo'g'irchoq teatri tarixini o'rganishda yordam beruvchi "Qo'g'irchoq teatri tarixi", "Qo'g'irchoq yasash texnologiyasi" hamda "Qo'g'irchoq boshqarish asoslari" kabi mutaxassislikka yo'naltiruvchi fanlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda ilmiy-nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan xulosalarning jahon san'atshunosligi, teatrshunosligi va madaniyatshunosligida o'z isbotini topgan ilmiy metodlar va nazariy yondashuvlari qo'llanilganligi, ijodiy jarayonlarni kuzatish

natijalariga asoslanganligi, tarixiy va zamonaviy mavzularda sahnalashtirilgan spektakllarning tahliliga tayanilganligi, shu bilan bir qatorda mavjud arxiv materiallari, ijodkorlarning esdaliklaridan foydalanilganligi va ular asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasida an'anaviy va zamonaviy tendensiyalarni aniqlash, qiyosiy tipologik yondashuvlarni qo'llagan holda o'rganish, o'zbek qo'g'irchoq teatrlari rivojlanishining asosiy bosqichlariga aloqador, qo'g'irchoq yasash texnologiyasiga oid qimmatli manbalarni ilmiy tahlil etish, soha rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar teatrshunoslik fanidagi mavjud ma'lumotlarni to'ldiradi va qo'g'irchoq teatri san'ati bo'yicha kelajakda olib boriladigan ilmiy izlanishlarga tayanch vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada o'z yechimini topgan masalalar bo'yicha olingan ma'lumotlar ijodkor kadrlarni tayyorlash, spektakllar sahnalashtirish, qahramon obrazini mukammallashtirish, rejissyorlik topilmalari va ijodiy izlanishlar chegarasini kengaytirish, yangi yondashuvlarni shakllantirishda, "Qo'g'irchoq teatri tarixi", "Qo'g'irchoq yasash texnologiyasi", "Qo'g'irchoq boshqarish asoslari" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qilishi barobarida qo'g'irchoq teatrlari faoliyatiga bag'ishlangan istiqboldagi ilmiy-tadqiqot ishlarida samarali natijalar berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalarga ko'ra quyidagilar amalga oshirildi:

o'zbek teatr qo'g'irchoqlarining jahon qo'g'irchoq turlari bilan tasviriy ifodalash vositalari, sahna bobligi jihatidan o'xshash va uslubiy yondashuvlari, tomoshabin bilan muloqotga kirish kabi mushtarak jihatlari, shuningdek, milliy sahna madaniyatiga xos bo'lgan badiiy-estetik xususiyatlari aniqlanishiga oid xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi qo'g'irchoq teatrlari faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 02-12-17-1021-son ma'lumotnomasi). Natijada, texnologik jihatdan mukammal, raqamli qahramonlar bilan raqobatlasha oladigan milliy qo'g'irchoqlarni yaratish va ularni ko'rik-festivallarda namoyish etish imkoniyati yaratilgan;

Evropa tipida yozma dramaturgiya asosida ish ko'ruvchi yangi shakldagi teatr qo'g'irchoqlarini yasashda obraz tub mohiyatini aniq ifodalash va badiiy shaklni kuchaytirish zarurati sababli pape-mashe texnologiyasidan keng foydalanilganligi, bugungi kunda ham bu an'ana aksariyat spektakllarda qo'llanilib kelinayotganligi isbotlangan xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi qo'g'irchoq teatrlari faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 02-12-17-1021-son ma'lumotnomasi). Natijada, respublikadagi qo'g'irchoq teatrlarida qo'g'irchoq yasashning pape-mashe texnologiyasidan foydalanish metodik tizimi takomillashtirilgan;

teatr qo'g'irchog'ining sahnada badiiy obraz yaratishdagi ifodalash imkoniyatlari, harakatlanish usullari va boshqaruv mexanizmlarini aks ettiruvchi strukturaviy echimlari, funksional qurilishi va konstruktiv elementlari kabi texnik xarakteristikasi, rassom va qo'g'irchoq ustasi ishi, qo'g'irchoqlarning badiiy ifodaviyligi qahramon xarakterini ochishga xizmat qilganligi dalillangan xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi teatr arboblari uyushmasi tomonidan repertuar shakllantirish va dolzarb spektakllarni sahnalashtirish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi teatr arboblari uyushmasining 2025-yil 12-martdagi 01-02-24-son ma'lumotnomasi). Natijada, respublikadagi qo'g'irchoq teatrlari repertuari badiiy jihatdan takomillashtirilgan;

tarixiy, afsonaviy, zamonaviy mavzudagi asarlarni sahnalashtirishda qo'g'irchoq yasash texnologiyalaridan foydalanish sahna ko'rinishlarining ifodaviy echimlarini boyitish va tomoshabin taassurotini kuchaytirishga ta'sir qilgani sababli spektakllarning badiiylik, ta'sirchanlik xususiyatini oshishiga xizmat qilganligi asoslangan xulosa va takliflardan "O'zbekiston tarixi" telekanali dasturlarida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 13-noyabrdagi 01-44-427-son ma'lumotnomasi). Natijada, qo'g'irchoq teatri tarixi, janrlari, turlari va qo'g'irchoq yasash uslublarining ijtimoiy-madaniy ahamiyati keng auditoriyaga ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhakamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 6 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot predmeti va obyekti aniqlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi qayd etilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan maqolalar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Teatr qo'g'irchog'ining spetsifik xususiyatlari"** deb nomlanib, u ikki bo'limdan iborat. Qo'g'irchoq teatrining tarixi, uning rivojlanish bosqichlari va erishgan yutuqlari zahirida qo'g'irchoqlarni yasash texnologiyasining o'zini muhim ahamiyat kasb etadi.

"Mavzuning ilmiy-nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bo'limda qo'g'irchoq teatrining vujudga kelishi, rivojlanish jarayonlari, teatr qo'g'irchoqlarini yasash bo'yicha o'rttirgan tajribalari haqida so'z boradi. Ilk Yevropa qo'g'irchoq

teatri va uning ifoda vositalari haqida XIX asr boshlarida tadqiqot olib borganlardan biri Sh.Manen. U teatr qo'g'irchoqlarini texnologik ishlanmasiga ko'ra emas, balki tomoshalarining xususiyatlariga qarab qo'g'irchoq teatri rivojlanishini davrlarga bo'ladi: marosim teatri, o'rta asr teatri, uyg'onish davri teatri, XVIII-XIX asr simvolistik teatr. Uning ortidan Yorik qo'g'irchoq teatrining boshqarish tizimidan qat'iy nazar, har qanday turdagi teatr qo'g'irchoq'ini "marionetka" deb ataydi.

Zamonaviy san'atshunoslik hamda madaniyatshunoslik yo'nalishida yozilgan ilmiy tadqiqotlarda teatr qo'g'irchoqlari umumiy qo'g'irchoq san'ati rivojlanish jarayonlaridan ajratilmagan holda tadqiq etiladi. Bizga ma'lumki, qo'g'irchoqlar ikki soha – san'atshunoslik (tasviriy san'at, haykaltaroshlik) va teatr san'atiga (teatr qo'g'irchoqlari) oid ijod namunasi hisoblanadi.

Rus qo'g'irchoq teatri bo'yicha ham samarali izlanishlar olib borilgan. Ye.Kovicheva, Ye.Lopatkina ilmiy ishlarida teatr qo'g'irchoqlarining tasviri, funksional jihatlar va shakliy o'ziga xosliklari aniqlangan. S.Gnutikova, V.L.Berman, Y.Romanovskiy, A.Ivanovanning izlanishlarida teatr qo'g'irchoqlari texnologiyasi masalasiga birinchilardan bo'lib konstruktorlar murojaat qilganligi, an'anaviy shakllangan qo'lqopli qo'g'irchoq turi asosan xalq tomoshalari bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, marionetka qo'g'irchoqlari esa asosan iplar vositasida murakkab boshqariladigan qo'g'irchoqlar bo'lganligi, avtomat, mexanik, vertep qo'g'irchoq turlari haqida fikrlar bayon etiladi. Mazkur dissertatsiya va avtoreferatlarda qo'g'irchoq teatri san'ati tarixi, jahon badiiy madaniyat kesimida bu teatr turining o'rni, turli uslubda (ya'ni qo'lqopli, marionetka, mexanik, planshetli va h.) yasalgan teatr qo'g'irchoqlarining texnologik ishlanmasi, davlat muzey kolleksiyalari, shaxsiy kolleksiyalarda, teatr muzeylarida saqlanayotgan teatr qo'g'irchoqlari tasniflari, mualliflik qo'g'irchoqlari va teatr qo'g'irchoqlarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. N.Smirnova, Ye.Speranskiy, I.Solomonik, I.Nekrilova kabi nazariyotchilarning ishlarida turli davrlarda Yevropa va Osiyo mamlakatlarida mavjud bo'lgan qo'g'irchoq teatrlari haqida ma'lumotlar jamlangan, ularning turlari va davriy o'zgarishlari haqida xulosalar qilingan. S.Obrazsov, I.Yefimov va N.Simonovich-Yefimova, Ye.Demmeni, A.Fedotov kabi qo'g'irchoq teatri amaliyotchilari ishlarida teatr qo'g'irchoq'ining an'anaviy shakllariga tayangan holda yangi-yangi tasviriy yechimlarga ega bo'lgan qo'g'irchoqlarning texnik ishlanmasiga e'tibor qaratilgan.

Qardosh respublikalarda qo'g'irchoq teatrlarida kechayotgan ijodiy jarayonlarni kuzatish biz uchun juda muhim. N.Nurjonovning an'anaviy tojik qo'g'irchoq teatri, A.Sirimbetovning qirg'iz qo'g'irchoq teatri, F.Yeshmuratovanning qozoq qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos xususiyatlari, Yevropa tipidagi qo'g'irchoq teatri rejissurasining shakllanishi va bugungi kundagi taraqqiyot bosqichlariga e'tibor qaratilgan.

O'zbek teatrshunoslik fanida teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasini ilmiy o'rganish, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy ijodiy jarayonlari alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan. An'anaviy qo'g'irchoq teatri, o'ziga xos tomosha xususiyatlari, qo'g'irchoqlar tuzilishi, turlari, chodir – havaskor etnograf P.Komarov tomonidan to'plangan qo'g'irchoqlar kolleksiyasiga tayanilgan holda M.Gavrilov va L.A.Perepelitsina ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Ular asosan Toshkent qo'g'irchoqbozlari ijodi misolida ilk marotaba o'zbek an'anaviy

qo'g'irchoq teatri tarixini umumlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. XX asrning ikkinchi yarmidan bu murakkab ilmiy jarayon bilan muttasil M.X.Qodirov shug'ullandi. Uning ilmiy izlanishlari asosini o'zbek an'anaviy teatrining bir turi bo'lgan qo'g'irchoq teatrining rivojlanish bosqichlari, teatr turlari, tomosha matnlari – og'zaki dramaturgiya namunalari, ijrochilari to'g'risida Farg'ona vodiysi hamda respublikamizning janubiy viloyatlariga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda yig'ilgan materiallar tashkil etadi. Shuningdek, XXI asrdagi qo'g'irchoq teatrlari rivojlanish jarayonlari M.Qodirov, H.Ikromov, S.Qodirova, T.I.Yuldashev, M.Ashurova, T.Smolyakova, M.Ubaydullayeva, F.Kobilovalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Birinchi bobning **“Qo'g'irchoq yasash texnologiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlari”** nomli ikkinchi bo'limi ushbu san'at turining shakllanish va rivojlanish jarayonlari, teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Qo'g'irchoq teatri o'zining ibtidosini marosim, diniy qarashlar, afsona va rivoyatlardan oladi. Ushbu san'at elementlari avval boshda marosim qobig'iga o'ralgan bo'lib, so'ng asta-sekin tomoshaviylikka urg'u berilgan. Ilk teatr an'analari dastavval qadimgi Misr, Gretsiya, Rim, Xitoy, Hindiston, Yaponiya mamlakatlarida yuzaga kelgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan Yevropa mamlakatlarida rivojlandi. Diniy marosim va bayram tomoshalarida ishlatilgan qo'g'irchoqlarning ishlanmasi murakkab va mukammal bo'lgan. Qo'g'irchoq ustalari aniq fanlar – matematika, mexanika, kimyodan xabardor bo'lishi zarur hisoblangan. Ular yasagan qo'g'irchoqlar hajm jihatidan katta yoxud kichik bo'lishidan qat'iy nazar odamlarda qo'rquv va bo'yinsunish hissini uyg'otgan. Mukammal yasalgan mexanik qo'g'irchoqlar bir necha odamlar tomonidan ko'rinmagan holda boshqarilgan.

Hindiston, Xitoy, Yaponiyada ommalashgan iplar vositasida boshqariladigan, soyasi tushiriladigan qo'g'irchoq turlari bilan bir qatorda omma orasida keng tarqalgan qo'l qo'g'irchoq turi O'rta Osiyo qo'g'irchoq teatri rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan. Xitoy va Hindistonning qadimiy qo'g'irchoq tomoshalarida o'zbek Polvon Kachalining uzoq ajdodi Kalbosh Kvo va Vidushak qo'g'irchoq qahramonlari mavjud bo'lgan. Eramizning V-VII asrlarida O'rta Osiyo xalqlari madaniy tarixi, folklori va etnografiyasi, xususan, tomosha san'ati tizimlariga kiruvchi qo'g'irchoq o'yin Buyuk ipak yo'lidagi karvonlarga qo'shib, ikki yo'nalishda – sharq va g'arb yo'nalishida faoliyat ko'rsatadi.

G'arbda ham qo'g'irchoq teatri o'ziga xos xususiyatlar bilan rivoj topdi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Italiya qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi XV-XVI asrlarga borib taqaladi. Bu o'lkada asosan qo'g'irchoqlarning yog'och taxta ustida raqs tushuvchi qo'g'irchoq, qo'lqopli va iplar yordamida boshqariladigan turlari bo'lgan. XVII asrda Angliyaga Fransiya, Gollandiya va Italiyadan bir qator komediantlar ko'chib kelishadi va bu yerda ham qo'g'irchoq teatri san'ati bilan shug'ullanishni davom ettirishadi. Italiyalik Pulchinellaning nomi Angliyaga kelib Panchga aylanadi. Rus qo'l qo'g'irchoq'i Petrushka haqida ilk marotaba XVII asr manbalarida tilga olinadi.

O'zbek qo'g'irchoq teatrining shakllanish jarayonlari ham marosim, xalq tomosha va o'yinlariga borib taqaladi. Ilk bor an'anaviy teatrning masxaraboz va

qiziqchilar san'atida jonli ijrochi bilan qo'g'irchoq namoyon bo'lgan holda qo'g'irchoq teatriga poydevor qo'yilgan. O'zbek qo'g'irchoq san'ati hamda qo'g'irchoqlar yasalishi haqida turli adabiy manbalar, tarixiy xronikalar, solnomalarda sochilgan ma'lumotlarga tayanamiz. O'lkamizda barcha san'atlar, shu jumladan qo'g'irchoq san'ati rivoji XIV asrning ikkinchi yarmi-XVI asr Amir Temur va temuriylar davriga borib taqaladi. A.Navoiy dostonlaridagi sochma izohlardan qo'g'irchoq teatrining eng ommalashgan qo'l qo'g'irchoq, ipli va soyasi ko'rinadigan turlari taraqqiy etganligining guvohi bo'lamiz. Husayn voiz Koshifiy hazrat Navoiy fikrlarini davom ettirib, qo'lga kiyib o'ynatiladigan va yuqoridan iplar yordamida tomosha ko'rsatadigan turiga ta'rif beradi.

XVI-XVII asrlarda bizning o'lkada qo'g'irchoq o'yinining ikki turi – qo'l va ipli qo'g'irchoq jadal rivojlandi, ba'zida soya teatri – “fonus xayol” ham o'ynaldi. XIX asrning oxiri-XX asr boshiga kelib, qo'g'irchoq teatrining asosan ikki turi o'z faoliyatini davom ettirdi, bular – qo'l qo'g'irchoq va iplar vositasida boshqariladigan qo'g'irchoq turi saqlanib qoldi. Atamalar saqlanmagan bo'lsa-da, qo'lqopli va ipli qo'g'irchoqlar hali-hanuz ishlatiladi. Faqat qo'lqopli qo'g'irchoqlar chodir ichida emas, shirma yuzida tomosha ko'rsatadi, xolos. Iplar vositasida o'ynaladigan qo'g'irchoq turi (marionetka) deyarli texnikasi saqlangan, biroq zamonaviy qo'g'irchoq teatrida simli (trosli) qo'g'irchoqlardan ko'proq foydalaniladi.

Sharq va g'arb qo'l qo'g'irchoqlarini umumlashtiruvchi jihat ularning deyarli bir xil uslubda yasalishi, qo'g'irchoqboz tomonidan jonlantirilish uslubiyatlarida namoyon bo'ladi. Asosiy xususiyati yomonlarni, zamon zo'ravonlarini kaltaklab jazolash, dolzarb mavzularni hayotdan olib, majoziy, hajviya, yumor vositalari bilan tasvirlash, eng muhimi, milliy an'analardan unumli foydalanishda aks etadi.

Ikkinchi bob **“O'zbek qo'g'irchoq teatrida aktyor va qo'g'irchoq fenomeni”** deb nomlanib, u ham ikki bo'limdan iborat. Ushbu bobda yangi uslubdagi qo'g'irchoq teatrining shakllanishi, rivojlanishi hamda ijodiy jarayonlari teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy xususiyatlari hamda aktyorning qo'g'irchoqlar bilan ishlashdagi o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Bobning birinchi bo'limi **“Yangi uslubdagi qo'g'irchoq teatrining tarkib topishi va shakllanishi”** deb nomlangan bo'lib, bu bo'limda qo'g'irchoq teatrining spetsifik xususiyatini belgilovchi aktyor ijrochiligi hamda qo'g'irchoqlarning zamonaviy xususiyatlari haqida so'z boradi. XIX asrning oxiriga borib qo'g'irchoq tomoshalari Yevropa rusumidagi teatr ta'sirida bo'ldi. Mustamlaka davrida qo'g'irchoqbozlar nafaqat mahalliy amaldorlar, din peshvolari ustidan kulganlar, balki o'lkaga kirib kelgan rus ma'muriyati siyosatini ham tanqid ostiga oladilar va buning ortidan rasmiy ma'murlar tomonidan javobgarlikka ham tortiladilar.

XX asr boshlariga kelib, malakali qo'g'irchoqbozlar an'anaviy tomoshalar matniga o'zgartirish kiritgan holda tomoshaviylik jihatlariga e'tibor qaratdilar. Yevropa uslubini o'zlashtirgan qo'g'irchoq teatri qadimgi syujet va obrazlardan foydalangan holda zamonaviy voqelikni aks ettiradigan yangi repertuar yaratishga kirishdilar. Natijada birin-ketin zamonaga mos va xos tomoshalar “Oftobxon va Mohtobxon”, “Dangasa er va zarbdor xotin” kabi syujet liniyasi o'zgartirilgan, ko'proq o'yin, raqs turkumlari (“Tanovar”, “Jonon”, “Lazgi”, “Zang”) va raqqosa

(To'tixon, Qumrixon, O'smaxon, Surmaxon, Oyjamol, Guljamol va h.k.) qo'g'irchoqlar tasvirlangan zamonaviy ko'ngilochar tomoshalar yuzaga keldi.

Yevropa tipidagi yozma dramaturgiya asosida ish ko'ruvchi teatr zamonga moslashishga harakat qilib, birinchilardan an'anaviy qo'g'irchoq teatriga xos ko'chma chodirdan voz kechib, turg'un sahna-shirma va rasmana nutqdan foydalanishga kirishdi. 1939-yili Respublika qo'g'irchoq teatri va uning o'zbek va rus tilida o'ynaydigan truppasi vujudga keldi. Sovet davrida mavjud an'analarga ega, teatr san'atining eng qadimiy turi hisoblangan o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatridan, uning tomoshalariga xos bo'lgan improvizatsion yengillik, badihago'ylik, tanqiddan, qo'g'irchoq yasash, saqlash uslubiyati hamda boshqarishga taalluqli jihatlardan butkul voz kechildi. Bu davrda qo'g'irchoq teatri ham boshqa teatr turlari kabi hukmron mafkuraga xizmat qila boshladi, targ'ibot quroliga aylandi. Nafaqat poytaxtda, balki viloyat miqyosida ham teatr truppalari tashkil etishga urinishlar amalga oshirildi. Ijodiy harakatlarda Po'latjon Doniyorov, Nurxon Eshmuhamedov, Muhammadjon Soliyev, Hamidulla Abdullayev, Vahobjon Azimov kabi san'atkorlar ishtirok etdi.

O'zbek qo'g'irchoq teatri ilk bosqichda sahnalashtirilgan spektakllardagi qo'g'irchoqlarni yasash, ularni bezatish, texnik imkoniyatlar bilan ta'minlash, boshqarish masalasi bilan ijodkorlarning o'zlari shug'ullangan. Sababi, ularning tajribasini oshiradigan, malaka beradigan o'quv dargohi yo'q edi. Bu ijodkorlar yoki an'anaviy qo'g'irchoq teatri bilan yaqindan tanish bo'lgan, xususan Po'latjon Doniyorov singari aynan qo'g'irchoq teatri ta'limini emas, balki teatr san'atining boshqa turlari – katta drama teatrlari ijodkorlari bo'lishgan. Bu teatr turida faoliyat olib borish jarayonida asta-sekin sohani egallash va professionallikka erishish yo'lida izlandilar. Teatr ilk bosqichda asosan tarjima asarlarga murojaat qildi, sababi endi-endi shakllanayotgan yozma dramaturgiya namunalari kam sonli edi.

1950-yillarga kelib teatr uchun yozadigan mualliflar soni ortdi. Bu esa qo'g'irchoq teatri imkoniyatlarining kengayishiga, qo'g'irchoqlar ishlanmasida nafaqat qo'lqopli, balki gapitli, trosli qo'g'irchoq turlaridan foydalanishga sabab bo'ldi. 1960-yillar qo'g'irchoqlarida insonlarning nusxasini emas, balki rassom tomonidan chizilgan, qo'g'irchoq ustasi tomonidan ishlangan, aktyor tomonidan jonlantirilgan, dramaturg tavsiya etgan voqelikni rejissyor badiiy idrok etgan qo'g'irchoqlar harakat qiladigan spektakllar yaratishga urinish davri bo'ldi. Bu davrda teatrdan o'z ijodiy qarashlarga ega rejissyorlar V.Iogelsen, I.Yoqubov, rassom V.Akudin, S.Seduxin, qo'g'irchoq yasovchilar Ye.Podgurskaya, A.Semikova, S.Strashnovlar faoliyat yuritdi. Spektakllarda milliy qo'g'irchoq qahramonlar qiyofasi va shijoatiga ehtiyoj sezildi. Buning natijasida sahnada o'zbek qahramonlarining badiiy qiyofasi birmuncha jonlana boshladi.

1970-1980-yillarga kelib, o'zbek qo'g'irchoq teatri spektakllarida ijobiy burilish sodir bo'la boshladi. Bir spektaklda turli xil qo'g'irchoq tizimlarining birga qo'llash holatlari ko'zga tashlandi. Repertuarining rang-barang asarlar bilan boyishi, ayniqsa, an'anaviy teatr spetsifikasiga murojaat etish, zamonaviy qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos milliy qiyofasini yaratish yo'lidagi samarali izlanishlar namoyon bo'ldi. Milliy va jahon durdona asarlari yorqin ijro va rejissyorlik yechimlarida ifoda etildi. Noan'anaviy tajribalarga qo'l urush, qo'g'irchoq teatri san'atini tomoshaviyligini

yanada oshirish, keng tomoshabinlar auditoriyasini egallash maqsadida yoshi katta tomoshabinlarga mo'ljallangan jiddiy asarlarga qo'l urildi. Sahnalashtirilgan spektakllar orasidan Bela Gador va Sidvar Darvash qayta ishlagan "Sohibjamol Galateya" (rej. V.Iogelsen, rassom V.Akudin) spektakli alohida ajralib turadi.

Milliy asarlarga murojaat namunasi sifatida Hamid Olimjon poemasi asosida "Semurg" spektakli (Zulfiya va S.Somova inssenirovkasi) sahna yuzini ko'rdi. Rejissyor I.Yoqubov teatrga endi kelgan vaqtlari, qo'g'irchoq teatri spetsifik xususiyatlarini kengaytirishga, milliylik namoyon bo'lgan spektakl yaratishga intildi. Spektaklda qo'g'irchoq teatrining simli qo'g'irchoq turidan foydalangan bo'lib, bu turning sahnaviy imkoniyati keng ochib beriladi. Rassom-senograf V.Akudin spektaklning g'oyasidan kelib chiqqan holda sahna makonini aniq va kerakli buyumlar bilan bezagan, bu o'z vaqtida qo'g'irchoq - personajlar xarakterini to'laroq namoyish etishga ko'maklashgan. Qo'g'irchoq ustasi bilan hamkorlikda qo'g'irchoqlarni yasashda personajlarning xarakter ishlanmasidan kelib chiqqan holda yangi qiyofalar yaratildi, ijrochi aktyor esa ularni shirma ortida jonlantirdi. Bu davrda sahnalashtirilgan spektakllarda boshqa yillardagiga qaraganda professional rejissura, aktyor ijrochiligi va repertuar yaratish borasida ijobiy natijalarga erishildi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limi **"Respublika qo'g'irchoq teatrlarida kuzatilgan ijodiy izlanishlar"** deb nomlandi. XX asrga kelib, Respublika qo'g'irchoq teatrida dramaturgiya namunalarini saralash, tomoshabinga manzur bo'ladigan milliy asarlarni yaratish yo'lida samarali izlanishlar olib borildi. Ijodkorlar rus qo'g'irchoq teatrlarida kuzatilayotgan ijodiy jarayonlarni o'rgangan holda spektakllar sahnalashtirdi milliy va Yevropa qo'g'irchoq teatri an'analari uygunlashtirishga harakat qildilar.

XX asrning ikkinchi yarmida qo'g'irchoq teatri spektakllarini sahnalashtirishda dramaturg, rejissyor, aktyor, rassom, haykaltarosh hamkorligi vujudga keldi. Sahnalashtirilgan "Semurg", "Kul, kulaver, Oyxon!", "Oygul va Baxtiyor", "Farhod va Shirin", "Kachal Polvon", "Sirli nay", "Kenja qiz" kabi spektakllarda milliy xususiyatlar teatr qo'g'irchoqlari ishlanmasida yaqqol namoyon bo'ldi.

Respublika qo'g'irchoq teatri 1966-yilda kadrlar masalasini qondirish maqsadida ikki yillik teatr studiyasini tashkil etadi. 1968-yilda teatr qoshidagi studiyani tugatgan talabalardan tashkil topgan guruh yig'ilib, Andijonda "Lola" davlat qo'g'irchoq teatriga asos solinadi. Shu yili Leningrad davlat teatr institutining rejissyorlik kursini tamomlagan V.Iogelsen, Toshkent davlat teatr san'atining drama rejissyorligini tugatgan I.Yoqubov qo'g'irchoq teatrida o'z faoliyatini boshlaydi. Iso Yoqubov Iogelsen bilan ijodiy hamkorlikda 1966-yildan 1992-yillargacha Respublika qo'g'irchoq teatrida uzluksiz faoliyat olib boradi.

1969-yilda V.Iogelsen Andijonning "Lola" qo'g'irchoq teatrida "Alpomish" dostoni motivlari asosida T.Tursunov yaratgan sahna asarini qo'ydi. O'zbek va rus guruhi bilan hamkorlikda she'riy yo'sinda yozilgan asarni rassom A.Anisimov bezaydi. Muallif doston syujetini sahnabop holatda mujassamladi, rejissyor V.Iogelsen voqea va hodisalarni bayon etib qolmasdan, tomoshabin ko'z o'ngida badiiy yaxlit, voqealar ketma-ketligini yaratib, xalqning mardligi, ozodlik haqidagi orzu-istaklarini qo'g'irchoqlar vositasida tasvirlaydi.

Demak, o'tgan asrning 60-yillariga kelib bolalar uchun xizmat qiladigan va vositasi qo'g'irchoqlar bo'lgan teatrlar soni yana bittaga ortdi. Bu qo'g'irchoq teatri sohasida raqobatni va ijodkorlardan yanada yaxshi ishlashni talab etdi. V.Iogelsen Andijondagi faoliyati davomida bir qator bir-biridan ijodiy uslubi bilan ajralib turadigan spektakllar yaratdi. Uning "Toshkent – 66" (R.Safarov asari, rassom A.Moskin), "Maloxitli quticha" (A.Anisimov asari, rassom A.Moskin), "Soldat va yalmog'iz" (Ye.Speranskiy asari, rassom A.Moskin) kabi spektakllarda ishlatilgan qo'g'irchoqlar, ularning ishlanmasi, boshqarilishi, aktyorlar ijrosi va rejissyorlik yechimlari bu sohada yangi ijodiy bosqich boshlanganidan darak berdi. Bu davr spektakllarida milliy asarlarga murojaat qilingan bo'lsa-da, ko'p hollarda ishlatilgan qo'g'irchoqlarning tasviriy yechimlarida, ularning yuz tuzilishida milliy xususiyatlar aks etmagan.

1974-yili I.Yoqubov Respublika qo'g'irchoq teatrida Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi" asari asosida "Kul, kulaver Oyxon!" nomli spektaklini tomoshabinlar e'tiboriga havola etadi (rassom V.Akudin, inssenirovka muallifi M.Ushats). Spektaklda rejissyor I.Yoqubov o'zbekona munosabatlar, lutflar, milliy xarakterlar ishlanmasi, turmush tarzi, milliy urf-odatlardan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Rejissyor milliy asarlarga murojaat qilarkan, nafaqat sahna bezaklarida, sahna makonida, balki qo'g'irchoqlar ishlanmasida ham bir-ikki detallar asosida milliy koloritni ta'kidlashga harakat qildi. Bu xususiyat nafaqat Iso Yoqubov rejissurasi, balki umuman mazkur davr o'zbek teatri rejissurasiga xos tendensiyalardan biri bo'ldi. Spektaklda qo'g'irchoqlarning planshet turi tanlanib, timsol va liboslar tasvirida milliy koloritga urg'u berildi. Rassom qo'g'irchoqning psixologik obrazini yaratish asnosida uning aktyor ijrosidagi "jonlanish" aktini e'tibordan chiqarmaydi.

Spektakl qadim masxaraboz va qiziqchilarning tomoshasini yodga soladi. Qiziqqlar tomoshabinni voqeaga olib kiradilar. Qo'g'irchoqlarni yasashda mexanikadan foydalanilgan holda og'iz va ko'zlar ishlanadi. Ularning bosh qismi pape-mashe, gavdasi simlardan qilingan, simning ustidan paralon yotqizilgan, undan keyin kiyintirilgan. Spektaklda qo'g'irchoqlarning hajmli planshet turidan foydalanilib, aktyorlar qo'g'irchoq ichida turib ularni harakatlantirgan.

1970-yillarga kelib o'zbek qo'g'irchoq teatri jahon standartlari asosida, qo'g'irchoqlarning turlariga qarab ularni yasash, sahnalashtirish, dekoratsiya qurish, alohida musiqa bastalovchi kompozitorlar bilan ishlash, milliy repertuar yaratishga e'tibor qaratdi. 1979-yil Respublika qo'g'irchoq teatri uchun hisobot yili bo'ldi. Shu yili teatr maxsus qo'g'irchoq teatri uchun qurilgan binoga ega bo'ldi va aynan shu yil xalqaro qo'g'irchoqlar uyushmasi hamda O'zbekiston hukumati tomonidan Toshkentda Osiyo mamlakatlarining xalqaro qo'g'irchoq festivali "Oygul va Baxtiyor" spektakli bilan ochiladi. H.Olimjon dostonini Zulfiya va I.Yoqubov inssenirovka qilib qo'g'irchoq sahnasiga mosladi. Spektakl uchun milliy musiqa madaniyatining bilimdoni kompozitor M.Burhonovga musiqa yozdirildi, sahna bezaklarini V.Akudin bezadi. Qo'g'irchoq ustalari V.Sagadeeva va S.Strashnovlar qo'g'irchoqlarga alohida xarakter topish ustida izlandilar. Rejissyor va rassom hamkorligida spektakl qo'g'irchoqlarining planshetli va niqob turi tanlab olindi. "Oygul va Baxtiyor" spektaklida teatr turi uchun odatiy bo'lgan shirma ishlatilmaydi.

Spektakl qo'g'irchoqlar va niqobli aktyorlar bilan ochiq maydonda o'ynaladi. Har bir niqobning yuz ifodasi, ko'rinishi, bosh strukturasi o'ziga xos. E'tiborli jihati niqoblarni aktyorlar yuzlariga emas, balki boshi bilan birga kiyadilar.

1986-yilda Andijon qo'g'irchoq teatri ham H.Olimjonning "Oygul va Baxtiyor" dostoni asosida (N.Mamatov inss., rejissyor N.Mamatov hamda rassom G.Uvarova) spektakl sahnalashtirdi. Sahnalashtiruvchi rejissyor va rassom birgalikda maxsus qo'g'irchoqlar jamlanmasini yaratgan va har bir qo'g'irchoqning ijro etayotgan rolidan kelib chiqib tashqi ko'rinishiga, uning harakat holatiga alohida yondashganlar. Sahna asarida qo'g'irchoq-personajlar turlicha fe'l-atvorga ega bo'lgani sababli, bir spektaklda har xil qo'g'irchoq turlarini qo'llash tajribasidan foydalanilgan.

